

REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALISED  
EDUCATION  
BUKHARA STATE UNIVERSITY

English Linguistics Department

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS,  
FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND  
LANGUAGE TEACHING PROCESSES

(dedicated to the 75<sup>th</sup> anniversary of Candidate of Philological Sciences,  
Associate Professor M.Kh.Alimova)

Proceedings of International Scientific-theoretical Webinar



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
1930

2020-YIL  
25-DEKABR

Department  
**Eng**

SOAT 10:00

Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tilshunosligi kafedrasi

**“PRAGMALINGVISTIKA, FUNKSIONAL TARJIMASHUNOSLIK VA TIL O’RGATISH JARAYONLARI  
INTEGRATSIVASI”**

(Filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.H.ALIMOVA tavalludining 75 yilligiga bag’ishlanadi)  
mavzusida tashkillashtirilgan Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman



QAYSI TILLARDA  
O’ZBEK, RUS, INGLIZ



Manzil: Buxoro daylat universiteti,  
Buxoro shahar M.Iqbol ko’chasi  
11-uy.

BUKHARA -2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**Инглиз тилшунослииги кафедраси**

**ПРАГМАЛИНГВИСТИКА, ФУНКЦИОНАЛ  
ТАРЖИМАШУНОСЛИК ВА ТИЛ ЎРГАТИШ  
ЖАРАЁНЛАРИ ИНТЕГРАЦИЯСИ**

(Филология фанлари номзоди, доцент М.Х.Алимова таваллудининг 75  
йиллигига бағишиланади)

**мавзусидаги Халқаро миқёсидаги ОНЛАЙН  
илемий-назарий конференция материаллари  
ТҮПЛАМИ**

**2020 йил, 25 декабрь**

**Бухоро  
"Дурдона" нашриёти  
2020**

3. Baldick Chris. *The Concise Oxford Dictionary of Literary terms.* - Oxford: Oxford University Press, 2001.

## **KOMBINATOR VA POZITSION FONETIK O'ZGARISHLAR** **(ingliz va o'zbek tillari misolida)**

*N.H.Navruzova,  
II bosqich magistranti (BuxDU)*

Yevropa va turkiyshunoslikda tildagi fonetik hodisalar atroflicha o'rganilgan. Bu hodisani I.V. Arnold<sup>116</sup>, I.R. Galperin<sup>117</sup>, V.N. Vasilina, V.I. Goverdovskiy, L.T. Boboxonova<sup>118</sup>, Sh. Shoabdurahmonov<sup>119</sup>, B. Jo'rayev, M. Mirtojiyev, O. Umarxo'jayev, R. Shukurov, J. Eltazarov, A. Haydarov<sup>120</sup> kabi olimlarning ilmiy ishlarida uchratish mumkin.

Ularning ilmiy tadqiqotlarida fonetik hodisalarning nomlanishi, hosil bo'lism yo'llari, til va nutq sathidagi o'rni haqida batafsil fikrlar bayon etilgan.

Tilda nutq tovushlarining o'zgarishi asosan 2 holatga ko'ra sodir bo'ladi:

1-pozitsion (o'miga ko'ra) tovush o'zgarishi;

2-kombinator (o'zaro ta'sirga ko'ra) tovush o'zgarishi.

Pozitsion tovush o'zgarishi nutq tovushlari, so'zdagi o'rnashgan o'rniga bog'liq holatda o'zgarish hodisasidir. Kombinator tovush o'zgarishi nutq tovushlarining nutq kesimida shu so'zdan ma'lum tovush ta'siri bilan o'zgarish hodisasidir.

So'z fonetik variantlarini hosil qilishda metateza, proteza, epiteza, apakopa, eleziya kabi qator hodisalar uchraydi.

**Metateza** (grekcha "metathesis" – o'rin almashtirish) so'zdagi tovushlarning o'rin almashinishidir.

O'zbek tilida: *buyra – burya, kiprik – kirpik, tuproq – turpoq*.

Ingliz tilida: *revelent – relevant, brid – bird, calvery – cavalry, folige – foliage*.

Ingliz tilidagi "metateza" so'zining etimologiyasi lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, "metatithenia" fraza ma'nosida bo'ladi va ikki qismdan iborat: "meta" ma'nosi "beyond over", "tethenia" ma'nosi "to replace" demakdir.

Kristal fikricha, metateza tilshunoslikda qo'llanuvchi termin bo'lib, u so'z ma'nolari bilan bog'liq holda so'zda tovushlarning o'rin almashinishidir.

Metateza boshqa fonetik o'zgarishli hodisalar, assimilyatsiya, eleziyaga o'xshamaydi, u fonologik hodisa bo'lib, tilshunoslikda keng qo'llaniladi. Ingliz tilining ko'p variantligiga ega ekanligini inobatga olib, uning Amerika ingliz tili variantida quyidagi holatni ko'rish mumkin:

*asteiks – asterisk*

<sup>116</sup> Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – М.: Просвещение, 1999. – С. 202-211.

<sup>117</sup> Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. – М.: Высшая школа. 1981. – С. 312.

<sup>118</sup> Boboxonova L.T. Ingliz tili stilistikasi. – Т.: O'qituvchi. 1995. – 140 b.

<sup>119</sup> Shoabdurahmonov Sh. Tovush almashishi // O'zbek tili va adabiyoti. – Т.: 1961. N5. – 43-45 b.

<sup>120</sup> Haydarov A.A. Fonetik o'zgarishning vazifasi // O'zbek tili va adabiyoti. – Т.: 2006. N6. – 75-77 b.

*peetty* – pretty  
*calvery* – cavalry  
*folige* – foliage kabi.

Vaqt o'tishi bilan metatezaga uchragan so'zlar tilda standartlashib, ularning yozuvdagi shakli o'zgargan va yangi talaffuz shakllari yuzaga kelganligini ko'rish mumkin.

**Apakopa** (grekcha "epohope" – kesib qisqartirish) so'z oxiridagi tovush yoki tovushlarning tushib qolishi<sup>121</sup>.

O'zbek tilida: *go'sht* – *go'sh*, *g'isht* – *g'ish*, *ber* – *be*, *kel* – *ke*.

Ingliz tilida: *chemistry* – *chem*, *mathematics* – *maths* – *math*, *credibility* – *cred*.

Masalan:

In many poor neighbourhoods the Sandinistia Front has more street **cred** than the local youth gang.

Ingliz tilida bir necha so'zlar apakopa natijasida qisqartirilishini ko'rish mumkin. Jumladan, "cinema" so'zi "cinematograph" so'zidan, "photo" so'zi "photograph" so'zidan kelib chiqqan. Xuddi shuningdek, ingliz tilida ba'zi kishi nomlari ham apakopaga uchrab, ular quyidagicha: *Barb*, *Ben*, *Dek*, *Steph* (Bryan, Germer, Gamerls, Modern American Usage. Oxford University press. 2009).

**Proteza** (grekcha "prothesis" – oldida turuvchi) ma'lum fonetik sabablarga ko'ra so'z boshida tovush orttirilishidir. Proteza badiiy tasvir vositasi bo'lib, so'z yoki bo'g'in boshida tovush qo'shilish hodisadir, uni osonroq talaffuz qilishga yordam beradi.

O'zbek tilida: *rus* – *urus* – *o'ris*, *ro'mol* – *o'ramol*, *stol* – *ustal*, *stakan* – *istakan*.

Ingliz tilida: Old fond eyes, **bewEEP** this course again. (King Lear by W. Shakespeare).

Yozuvchi "weep" so'zi boshiga – "be" -ni qo'shish orqali so'z ta'sirchanligini oshirgan.

Edgar Allan Poning quyidagi she'riy misrasida ham fonetik o'zgarishli shakldan foydalanganligini ko'ramiz.

Thus much let me **avow**,  
You are not wrong who deem;  
That my days have been a dream;  
Yet if hope has flown away.

Shoir she'rning birinchi misrasidagi "**vow**" so'zi boshiga "a" unli fonemasini qo'shish orqali she'rning ritmik badiyligini ta'minlagan.

Shuningdek, tilda yana quyidagi fonetik o'zgarishlar mavjud:

**Assimilyatsiya** – tovushlardan biri ikkinchisini o'ziga o'xhash tovushga aylanishidir. (*o'tdi* – *o'tti*, *aytdir* – *ayttir*).

**Dissimilyatsiya** (noo'xshashlik) – ikki o'xhash tovushdan biri o'zgarib, bir-biriga nisbatan noo'xhash bo'lib qoladi. (*zarur* – *zalur*, *zarar* – *zalar*).

<sup>121</sup> Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi. 1985. -B. 17.

**Eleziya** – tovush tushishi. So’z o’zagiga qo’shimcha qo’shilganda o’zakdagи bir tovushning tushishi. (*o’g’il – o’g’lim, shahar – shahrim*).

**Sinkopa** – so’z tarkibidagi tovush va tovushlar kompleksining tushishi. (*birlan – bilan, singilim – singlim*).

**Epinteza** – so’z oxirida qo’sh undoshdan keyin unlining orttirilishi. (*kiosk – kioska, tank – tanka, bank – banka*).

**Epiteza** – kiritish. So’z ichida tovush orttirilishi. (*sinf – sinif, doklad – dokalad*).

Xulosa qilganda, fonetik o’zgarishli variantlar asosan ikki ko’rinishga – kombinator va pozitsion ko’rinishlariga ega. Bunday o’zgarishlar bir qancha ko’rinishlarga ega bo’lib, asosan, so’zlashuv va badiiy nutq uslublarida ro’yobga chiqadi.

Fonetik o’zgarishli so’zlarning deyarli barchasida hissiy ta’sirchanlik, emotsiyal bo’yoq, jozibadorlik, ohangdorlik kabi qator konnotativ ma’nolar ifodalanadi. Ushbu hodisalar ingliz tilida o’zbek tilidagidek qofiyani rostlash, ritm, tarixiylik, so’zlashuv nutqida esa qo’shimcha bo’yoqlarni hosil qiluvchi tasviriy vosita sifatida ahamiyatlidir.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. –М.: Просвещение, 1999. – С. 202-211.
2. Boboxonova L.T. Ingliz tili stilistikasi. –Т.: O’qituvchi. 1995. – 140 b.
3. Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. –М.: Высшая школа. 1981. – С. 312.
4. Haydarov A.A. Fonetik o’zgarishning vazifasi // O’zbek tili va adabiyoti. – Т.: 2006. N6. – 75-77 b.
5. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug’ati. –Т.: O’qituvchi. 1985. -B. 17.
6. Shoabdurahmonov Sh. Tovush almashishi // O’zbek tili va adabiyoti. –Т.: 1961. N5. – 43-45 b.

## **НЕМИС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ЎРМОНЧИЛИК ТЕРМИНЛАРИНИНГ ДИАХРОН ВА СИНХРОН ТАДҚИҚИ**

*Г.А.Тиловова  
(Тошкент давлат аграр университети)*

**Аннотация.** Ушбу мақола немис ва ўзбек тилларида ўрмончилик терминларининг диахрон ва синхрон тадқиқига бағишлиданади. Унда ўзбек ва хорижий тиллар тилшунослигига олимларнинг ўрмончилик соҳасида олиб борган тадқиқот ишлари шунингдек, тилшуносликдаги аҳамияти ҳамда ўрмончилик терминологияси устида изланишлар олиб боришнинг долзарб аҳамияти ҳақида фикр юритилди. Бугунги кунга қадар асосан, ўзбек ва рус тилшуносларининг ушбу соҳа юзасидан немис ва инглиз тиллари билан

<i>Tashpulatova V.I.</i> Pragmatic solution of translation in linguacultural adaptation.....	341
<i>Quvvatova Sh.</i> Ingliz-o ‘zbek tarjima jarayoni debochasi.....	343
<i>Бабаев М.Т., Бабаева В.Т.</i> Чет тилларини ўрганишда таржиманинг аҳамияти ва роли.....	348
<i>Раджабова М.А.</i> Ономастик таркибли фразеологизмларнинг таржимашуносликдаги ўрни.....	351
<i>Zokirova N.S., Bahodirova M.</i> Adequacy and Equivalence in translation studies.....	356
<i>Kobilova A.B., Sidikboeva G.</i> Representatives of the first and second stage of comparative studies.....	361
<i>Сайдова М.У.</i> Инглизча адабиётшунослик терминларини ўзбек тилига таржима қилиш масалалари.....	365
<i>Navruzova N.H.</i> Kombinator va pozitsion fonetik o’zgarishlar (Ingliz va o’zbek tillari misolida).....	368
<i>Тиловова Г.А.</i> Немис ва ўзбек тилларида ўрмончилик терминларининг диахрон ва синхрон тадқиқи.....	370
<i>Шарипова М.Ш.</i> Она тили ва чет тилини киёслаб укитиш оркали эстетик дунёкарашни шакллантириш масалалари.....	374
<i>Каримов Р.А.</i> Ўзбек-инглиз параллел корпусида бирликларнинг турли структуралар билан ифодаланиши ва уни параллеллаш масаласи.....	380
<i>Каримов Р.А.</i> Реалияларнинг таржимада берилиши ҳамда унинг параллел корпусда ифодаланиши.....	384

#### **4-ШЎЬБА: ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ**

<i>Akobirova Z.R.</i> Overcoming challenges for International students in the United States universities: English language proficiency and academic success.....	389
<i>Ахмедов Б.Я.</i> Формирование у учащихся навыков языковой догадки.....	391
<i>Abdujabbarova Z.R.</i> Chet til o’qitish qiyosiy metodikasi xususida.....	395
<i>Аҳмедова Н.М.</i> Бўлажак инглиз тили ўқитувчиларининг касбий тайёргарлигини интеграциялаштиришнинг инновацион технологиялари.....	400
<i>Abdullayeva N.O., Gulyamova M.</i> O’quvchi ta’liming tuzilishida ota-onalarning pedagogik ta’limi tizimining roli.....	405
<i>Abdullayeva G.G., Nasriyeva Sh.F.</i> Personality factor as one of the main issues influencing language learning.....	407
<i>Fayzullayeva A.I., Djurayeva D.R.</i> Ingliz tili o’qitishda multimedia vositalaridan foydalananish samaradorligi.....	412
<i>Nazarova G., Sharipova G.</i> Enhancing students’ speaking skills through the technique “Debate”.....	414